Kalit so'zlar: marketing tadqiqotlari, tadbirkorlar, iste'molchilar xulq-atvori, marketing strategiyalari, bozor tadqiqotlari, raqobatchilar tadqiqoti, so'rovnoma, respondentlar

Abstract: This article describes in detail the theoretical and scientific foundations of studying consumer behavior in the effective conduct of business. Also, based on foreign experience, a study was conducted to deeply analyze the behavior of Uzbek consumers. The results of the analysis showed that brand activity in social networks and such indicators as product advertising, price, availability and quality of the Halal certificate have a relatively high impact on decisions about buying Uzbek consumers. In this regard, the author emphasized that entrepreneurs in our country should pay attention to these factors in their activities.

Key words: marketing research, entrepreneurs, consumer behavior, marketing strategies, market research, competitor research, survey, respondents.

Аннотация: В данной статье подробно описаны теоретические и научные основы изучения потребительского поведения при эффективном ведении предпринимательской деятельности. Также на основе зарубежного опыта было проведено исследование с целью глубокого анализа поведения узбекских потребителей. Результаты анализа показали, что активность бренда в социальных сетях и такие показатели, как реклама продукции, цена, наличие и качество сертификата «Халяль», оказывают сравнительно высокое влияние на решения о покупке узбекских потребителей. В связи с этим автор подчеркнул, что предпринимателям нашей страны следует обращать внимание на данные факторы в своей деятельности.

Ключевые слова: маркетинговые исследования, предприниматели, поведение потребителей, маркетинговые стратегии, исследование рынка, исследование конкурентов, опрос, респонденты.

KIRISH

Kuchli raqobat sharoitida mahsulot yoki xizmatlarni qanday sotishni hal qilishdan oldin maqsadli bozorni chuqur tahlili qilish va tushunish talab etiladi. Tadbirkor yoki marketologlar uchun iste'molchilar xulq-atvorini tahlil qilish ularning xulq-atvoridagi muhim jihatlarni tushunish, shuningdek xaridorlar qanday qilib va nima uchun sotib olish to'g'risida qarorlarni qabul qilishlarini tahlil qilish orqali potensial mijozlarning ehtiyojlari va talablarini maksimal darajada qondirish uchun o'z mahsulotlarini, marketing strategiyalarini va umumiy marketing yondashuvlarini moslashtirishlari mumkin bo'ladi.

Iste'molchilar xulq-atvorini tadqiq qilish iste'molchilarning xohish-istaklari, xatti-harakatlari va munosabatlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilishning tizimli jarayonidir [1]. Ushbu tadqiqot natijasida, biznes egalari iste'molchilarning xarid qilish odatlarini, motivatsiyalarini, istaklarini va qaror qabul qilish jarayonlarini o'rgani-shadi va ayniqsa, ular nima uchun ma'lum bir tanlovlarni amalga oshirishlarini har tomonlama tushunishadi.



Maqsadli auditoriyani tushunish va tahlil qilish biznes egalari uchun xaridorlari shaxsi (portreti chizish)ni yaratish va ularni o'z mahsulotlariga sozlash uchun juda muhimdir [2]. Shuningdek, iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganish marketing strategiyalarini rejalashtirish hamda mijozlar kutganlarini qondirish uchun ham foydali bo'lib, raqobatchilardan oldinda bo'lishga yordam beradi [3]. Iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan tizimli va tezkor tadqiqotlar olib borish biznes egalari mahsulotni sotib olishga nima undayotganini aniqlashga yordam beradi [4]. Tadbirkorlar o'z mahsulot va xizmatlarini sotish uchun mijozlarni qidirmoqdalar, lekin agar ular o'z xaridlariga qiymat qo'shsa, bu albatta katta farq qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iste'molchilar xulq-atvori tadqiqotlari strategik qarorlar qabul qilish [5], maqsadli bozorlarni segmentlash [6], innovatsiyalar yoki yangi mahsulotlarni ishlab chiqish [7], samarali marketing kampaniyalarini amalga oshirish [8] va raqobatchilarni chuqur o'rganish [9] kabi dolzarb masalalarda amalga oshiriladi.

Iste'molchilar xulq-atvori tadqiqotlarida asosan ularning xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi besh turdagi omillar (madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va shaxsiy omillar)ni chuqur o'rganish va tahlil qilishga katta e'tibor qaratiladi [10]. Chunki, bu kabi tadqiqotlar potentsial xaridorlarning to'liq tushunishda katta ahamiyat kasb etadi.

Marketing strategiyasini ishlab chiqish, joriy etish va nazorat qilishni yana takomillashishiga olib keladi [11,12,13]. Marketing takliflarini yanada yaxshilashga yordam beradi [14]. Kompaniyalarning veb-sayti, onlayn qidiruv tizimi va display reklama faoliyatini qanday yaxshiroq ishlatish va mijozlarni nimasi bilan jalb qilishi mumkinligi kabi biznesni samarali boshqarish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi [15,16]. Xorijiy olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish asosida aytish mumkinki, to'g'ri va tizimli o'tkazilgan xulq-atvor tahlil natijalariga asoslangan qimmatli takliflarni kompaniyalar marketing strategiyasiga kiritish orqali nafaqat potentsial xaridorlarga ega bo'lish, balki bozordagi raqobatchilardan bir qadam oldinda turish mumkin bo'ladi.

Iste'molchilarning xatti-harakatlari bo'yicha tadqiqot o'tkazish tadbirkorlarga mahsulot va marketing strategiyasini yaxshiroq ishlab chiqish maqsadida iste'molchilarni nimani xoxlayotgani, qanaqa istaklari va ehtiyojlarini borligini tushunishga yordam beradi. Iste'molchilar xulq-atvori tadqiqoti miqdoriy (ma'lumotlarga asoslangan) va sifatli (tushuntirishga asoslangan) tadqiqot jarayonlaridan iborat bo'lib, unda kuzatish, so'rovlar, intervyular, fokus-guruhlar kabi tadqiqot usullaridan keng foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, iste'molchilar xulq-atvorlarini chuqur tahlil qilish orqali marketing harakatlarini muayyan segmentlarga moslashtirish va mijozlar kutganlarini qondirish mumkin bo'ladi. Ayniqsa, mijozlar ehtiyojlari va afzalliklariga mos keladigan takliflarni yaratish uchun ham muhimdir. Iste'molchi xatti-harakatlarini tushungan biznes egalari noyob qiymat takliflarini yaratishi va raqobatchilardan ajralib turishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorij olimlarining ilmiy adabiyotlarini o'rganish hamda rivojlangan brendlarning tajribalarini o'rganish asosida O'zbekistonlik iste'molchilarning tovar xizmatlarni xarid qilish jarayonlariga doir xulq-atvorlarini chuqur tahlil etish, xaridor portretini chizish, ularning har qanday biznes turiga yuqori ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarini chuqur o'rganish maqsadida so'rovnoma tashkil etildi.

So'rovnoma ikki turdagi tadqiqot usullaridan foydalangan holda tashkil etildi:

Kuzatuv usuli: maxsus bozorlar, supermarketlarda to'g'ridan-to'g'ri kuzatish hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatuvlar amalga oshirildi.

So'rov usuli: Ushbu usul so'rovnoma o'tkazish, telefon va intervyu shaklida suhbatlar o'tkazish orqali tashkil etildi. So'rovnoma qog'oz shaklida hamda Google Form ilovasi yordamida onlayn shaklda asosan Telegram, Feysbuk va Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnomalarni tarqatish va aholini keng jalb etish maqsadida tanishlar va O'zbekistonlik mashhur blogerlardan yordam so'raldi. Shuningdek, ushbu blogerlarning ramiy sahifalari orqali so'rovnoma savollari asosida intervyu shaklida savol-javoblar ham amalga oshirildi.

So'rovnomada ishtirok etgan jami respondentlarning umumiy soni 1543 nafarni tashkil etdi. Shundan, sohaga doir ma'lumotlarni tahlil qilish usullari uchun yaroqli hisoblangan 1289 nafar respondent javoblariga ega bo'lindi. Ba'zi so'ralgan savollarga javob bermagan va "So'rovnomaning haqiqiylikini tekshirish testlari"dan o'tmagan javoblar ma'lumotlar bazasidan chiqarib tashlandi.

So'rov jarayonlarida respondentlar bo'yicha tanlanmalar xorij tajribasi asosida to'g'ri tashkil etildi. Bunda asosan, respondentlarning demografik ma'lumotlari (yoshi, jinsi, yashash joyi va hududi, ma'lumotlilik darajasi) bo'yicha ulushlari jihatidan teng bo'lishiga katta e'tibor qaratildi. Shu jihatdan, tahlilni respondentlarning yashash hududlari bo'yicha tanlamadagi ulushining tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblandi. Shuningdek, so'rovnomada respondentlarning yashash joylari tahlil qilinib, unga ko'ra, 35,6 foiz qishloqliklar va 64,4 foiz shaharliklar ishtirok etgan.



So'rovnoma ishtirok etish uchun respondentlar yosh bo'yicha 5 guruhga segmentlarga ajratildi. Bunda ularning yoshlari 18 yoshdan boshlanib, 65 yosh va kattalar ham jalb etish rejalashtirilgan edi. Lekin, 65 yosh va undan kattalardan so'rovnoma ishtirok etishda bir qancha muammolarga duch kelinganligi sababi, 18-60 yoshlilar o'rtasida tashkil etildi. O'tkazilgan so'rovnoma respondentlarning yosh bo'yicha tahlillariga ko'ra, so'rovnoma 18-25 yoshli segmentlar ko'p ishtirok etib, ularning ulushi 510 foizni tashkil etgan. Eng kam ulushga ega bo'lgan yosh bo'yicha segment – 46-60 yoshlilar bo'ldi.

Shuningdek, xaridorlarning sotib olish qarorlariga ularning yashash joyi va hududlari kabi respondentlarning oilaviy ahvoli ham yuqori ta'sirga ega. Tahlil natijalariga ko'ra, bevalar – 2,3 foiz, oilalilar – 47,7 foiz, turmush qurmaganlar – 46,4 foiz va ajrashganlar – 3,5 foizni tashkil etdi.

Xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida mahsulotlarni xarid qilish jarayonlarida iste'molchilarning jinsi (erkak, ayol) yashash joyi va boshqa asosiy demografik ma'lumotlari kabi yuqori ahamiyatga ega ekanligi hamda sotib olish qarorlariga yuqori ta'sir etishi aniqlangan. Shu sababli, respondentlarning jinsi bo'yicha tanlanmani imkon qadar teng taqsimlashga harakat qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, so'rovnoma ishtirok etgan respondentlarning 43 foizi ayollar va 67 foizi eraklardan iborat bo'lgan. Sababi, xorij tajribasiga ko'ra, qo'yilgan tadqiqot maqsadi va gipotezalarni ilmiy asoslash uchun shu tartibda respondentlarning demografik ma'lumotlari bo'yicha segmentlarga ajratish talab etiladi.

Iste'molchilarning ma'lumotlilik darajasini tahlilida jami respondentlardan bakalavr ma'lumotiga ega segmentlar eng yuqori ulushga ega, shuningdek, eng kam ulushga o'rta umum ta'lim ma'lumotiga egalar bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Marketingda iste'molchi xulq-atvorlarini tahlil qilishning asosiy jihatlari sifatida iste'molchilarning ehtiyojlari va istaklarini tahlil qilish, iste'molchi xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni o'rganish, iste'molchi motivlarini tushunish, ularga ijtimoiy va madaniy ta'sirlarni hisobga olish, iste'molchilarning xatti-harakatlarini bashorat qilish hamda iste'molchilarning sadoqati va qoniqishini baholash masalalarini sanab o'tish mumkin.

Shu jihatdan, O'zbekistonlik iste'molchilarning har qanday mahsulot va xizmatlardan foydalanish hamda xarid qilish jarayonlarida ularning xulq-atvorlarini chuqur tahlil qilish maqsadida olingan so'rovnoma natijalari asosida quyidagi jadvallarda keltirilgan tahlillar amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval. Mahsulot xarid qilganda asosan qaysi xususiyatiga e'tibor qaratasiz savoliga berilgan javoblar tahlili.¹


Savollar	Javoblar soni, foizda
Sifati	33,6
Xizmat ko'rsatish muddati	2,57
Ishlab chiqargan firmasi (brendi)	2,0
Narxi	5,2
Keyinchalik yana biror maqsadda foydalana olish xususiyatiga	1,7
Avval foydalangan bo'lsam, shuni tanlayman	5,4
Sifati, xizmat ko'rsatish muddati, ishlab chiqargan firmasi (brendi)	11,9
Sifati, narxi, dizayni	5,5
Sifati, narxi	4,0
Sifati, ishlab chiqargan firmasi (brendi), narxi, dizayni	15
Sifati, ishlab chiqargan firmasi (brendi), narxi, avval foydalangan bo'lsam, shuni tanlayman	4,1
Sifati, narxi, avval foydalangan bo'lsam, shuni tanlayman	3,2
Sifati, xizmat ko'rsatish muddati, ishlab chiqargan firmasi (brendi), narxi	4,9
Ko'p reklama qilinganligi	0,9
Jami	100

1 Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida tuzildi.



Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, iste'molchilar mahsulot xarid qilganda asosan birinchi navbatda, mahsulot va xizmatlarning sifati (33,6 foiz)ga, ikkinchi o'rinda sifati, xizmat ko'rsatish muddati va ishlab chiqarigan brendi (11,9 foiz)ga, uchinchi o'rinda avval o'zlari foydalanganlari (5,4 foiz) ni tanlar ekanlar.

Shuningdek, iste'molchilarning atigi 0,9 foizi ko'p reklama qilinganligi uchun, 1,2 foizi sifati, ishlab chiqarigan brendi, narxi va avval foydalanganlarini hamda 1,7 foizi esa keyinchalik yana biror maqsadda foydalana olish xususiyatiga qarab tanlashar ekan. Lekin, shunday xaridorlar borki, xarid qilish jarayonlarida turli xildagi imkoniyatlarni berilishiga qarab, o'z munosabatlarini o'zgartiradilar. Bunga misol tariqasida, xarid qilish turlarini keltirish mumkin. Xaridorlardan qaysi xarid turi siz uchun qulay - deb so'ralganda, jami respondentlarning 76 foizi bozor, do'kon va supermarketlardan mahsulotlarni sotib olish javobini bergan. Demak, bundan O'zbekistonlik aksariyat xaridorlar onlayn yoki vositachi, diller, sotuvchilardan mahsulot va xizmatlarni xarid qilishdan ko'ra, an'anaviy hisoblangan bozor va do'konlardan borib xarid qilishni xush ko'radilar (1-rasm).



1-rasm. Xarid turlari bo'yicha iste'molchilarning fikrlari tahlili (Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida tuzildi).

Shunisi e'tiborni tortadiki, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 12,5 foizi onlayn (internet do'konlari orqali) xarid qilishni, 1,7 foizi vositachi, diller, sotuvchilardan xarid qilishni xohlar ekanlar. Hattoki, onlayn (internet do'konlari orqali) hamda vositachi, diller, sotuvchilardan xarid qilishni atigi 10 foizi xohlar ekanlar.

Amaliyotda, iste'molchilarning xulq-atvorlariga brendning ta'siri mavjud bo'lib, bu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Brend tadqiqoti tadbirkorlarga maqsadli xaridorlarning istaklari, talablari va boshqa muhim omillar haqida ko'proq bilib olishga imkon beradi. Mijozlarning sotib olish qarorlariga har doim brend va uning raqobatchilarini qanday qabul qilishlari ta'sir qiladi. Shu sababli, brend qiymatini muntazam ravishda puxta va strategik baholashni amalga oshirish muhimdir.

Shuningdek, bugungi kunda eng keng tarqalgan brendga sodiqlik tadqiqotlarida mijozlarning sodiqlik darajasi hamda takroriy sotib olish xatti-harakatlari o'rganiladi. Bu brendlarga mijozlarning sodiqligini oshiruvchi omillarni tushunishga va mijozlarni ushlab turish strategiyasini aniqlashga yordam beradi. Quyidagi 2-jadvalda O'zbekistonlik iste'molchilarning biror brendni yaqinlariga tavsiya etganlarida, aynan ushbu brendning qaysi jihatlarini ta'kidlashlari bo'yicha tahlillar keltirilgan.

2-jadval. Biror brendni yaqinlaringizga tavsiya etganda qaysi jihatlariga urg'u berasiz savoliga berilgan javoblar tahlili.²

Savollar	Javoblar soni, foizda
24/7 shaklda faoliyat ko'rsatishadi	1,1
Arzon	16,3
Ishonchli	7,6
Bepul xizmat ko'rsatadi	3,9
Chegirma narxlar ko'p bo'ladi	4,7
Doim shu brenddan xarid qilaman	5,4
Halol mahsulot (xizmat)lari	15,2

² Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida tuzildi.



Ko'pchilik foydalanadi	6
Ko'p reklama qilinadi	2,6
Sifatli	22,6
So'ngi trendda yuradi	11,3
Juda xushmomala, barcha savollarga javob berishadi	3,2
Jami	100

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 22,6 foizi biror brendni yaqinlariga tavsiya etganda, "sifatli", 16,3 foizi esa "arzon", 15,2 foizi "halol mahsulot (xizmat)lari" so'zlari bilan izohlar ekanlar.

Shuningdek, eng kam qismi, ya'ni 1,1 foizi 24/7 shaklda faoliyat ko'rsatishadi" deb ta'riflar ekan. Demak, ushbu tahlillardan xulosa qilish mumkinki, iste'molchilar tomonidan o'z brendlarini targ'ib etishga erishish uchun tabirkorlar reklamalari va ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlarida "halol mahsulot (xizmat)lar, arzon va sifatli" so'zlaridan kengroq foydalanishlari tavsiya etiladi. Shunda iste'molchilarning ushbu mahsulotlarga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga va uni eslab qolishlariga erishish mumkin bo'ladi.

Yana bir muhim jihati borki, bugungi kunda aksariyat iste'molchi-larning sotib olish qarorlariga yuqori ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bu bo'yicha berilgan savollarga javoblarning tahlili 3-jadvalda batafsil yoritilgan.

3-jadval. Korxonalarning mahsulotlarni yetkazib berish xizmatlariga bo'lgan iste'molchilarning munosabatlari tahlili.³

Savollar	Javoblar soni, foizda
Bugungi kunda barcha korxonalar yetkazib berish xizmatini ko'rsatishlari shart	21,3
Men uchun ahamiyati yo'q	15,0
Pullik yetkazib berilsa ham, har bir korxonada yetkazib berish xizmati bo'lishi kerak	5,6
Xaridorlarning korxonaga bo'lgan ishonchi va sodiqligi oshadi	8,2
Yetkazib berish xizmatining mavjudligi korxonaning nufuzini yanada oshiradi	14,3
Yetkazib berish xizmati – tekin bo'lishi lozim	13,35
Yetkazib berish xizmati mijozlar uchun katta qulaylik tug'diradi	22,5
Jami	100

Korxonalarning mahsulotlarni yetkazib berish xizmatlariga bo'lgan iste'molchilarning munosabatlari tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 22,5 foizi yetkazib berish xizmati mijozlar uchun katta qulaylik tug'dirishini, 21,3 foizi bugungi kunda barcha korxonalar yetkazib berish xizmatini ko'rsatishlari shart degan javoblarni berganlar. Lekin, 15 foiz respondentlar uchun yetkazib berish xizmatlarining mavjudligi ularning xarid qilish qarorlariga hech qanday ahamiyat kasb etmasligini bildirganlar.

Shuningdek, eng kam ulushga ega bo'lgan javoblar sifatida pullik yetkazib berilsa-da, har bir korxonada yetkazib berish xizmatlari ko'rsatilishi lozim (5,6 foiz) hamda yetkazib berish xizmatlarining ko'rsatilishi xaridorlarning korxonaga bo'lgan ishonchi va sodiqligini oshiradi (8,2 foiz) deb javob berganlar (4-jadval).

4-jadval. Iste'molchilarning sotib olish qarorlariga ta'sir etuvchi omillar tahlili.⁴

Savollar	Javoblar soni, foizda
Kafolat muddati	2,9
Mahsulot ma'qul kelsa, xarid qilaveraman	25,3
Narxdan chegirmalar berilsa	7,1
Odatda, turmush o'rtog'imning fikri muhim	7,9
Shu mahsulot haqida internetda bildirilgan fikrlar	28,7
Sotuvchilarning tavsiyasi	3,4

³ Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida tuzildi.

⁴ Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida tuzildi.



Sovg'alar taqdim etilsa	1,7
Yaqinlarimning fikri	15,7
Narxdan chegirmalar berilsa, sovg'alar taqdim etilsa	4,8
Yaqinlarimning fikri, sotuvchilarning tavsiyasi	2,6
Jami	100

Yuqoridagi 4-jadvalda iste'molchilarning sotib olish qarorlariga qanday omillarning ta'siri yuqori ekanligi ko'rib chiqilgan. Bunga ko'ra, respondentlarning 29 foizi mahsulot haqida internetda bildirilgan fikrlar va izohlarga qarab o'z fikrlarini o'zgartirishlari mumkinligin. 25 foiz respondent uchun mahsulot ma'qul kelsa, xaridni amalga oshirishadi. 16 foizi uchun yaqinlarining fikri muhim bo'lib, ularning sotib olish qarorlarini o'zgartira olar ekan.

Yana shuni ta'kidlash mumkinki, 2 foizga yaqin respondentlar sovg'alar taqdim etilganda, 2,6 foizi yaqinlarining fikri hamda sotuvchilar tavsiya etishiga ko'ra sotib olishlari hamda 3 foiz tovarlarga beriladigan kafolat muddatiga ko'ra sotib olish qarorlarini o'zgartirishlari mumkin ekan.

Demak, tadbirkorlar mahsulot yoki xizmatlari haqidagi internet saytlari hamda ijtimoiy tarmoqlarda bildirilgan va bildirilayotgan fikrlar va izohlarga katta e'tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, ushbu izohlarni sun'iy intellekt va Chat botlar kabi zamonaviy boshqarish dasturlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shu orqali biznes egalari mahsulot yoki korxona haqidagi salbiy fikrlar, shuningdek faoliyatlariga doir muammolarga tezkor javob berishlari hamda ularni o'z vaqtida samarali hal etishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, iste'molchilarning xulq-atvorini tadqiq etish raqobatbardosh bozorlarda muvaffaqiyat qozonish uchun juda muhimdir. Ushbu tadqiqotlar bozorda mijozlar ehtiyojlari to'liq qondirilmayotgan bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni maksimal darajada qondirish maqsadida innovatsiyalar va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish uchun imkoniyatlar yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iste'molchilarning afzalliklari va og'riqli nuqtalarni tushunish, shuningdek umumiy mijozlar tajribasini yanada yaxshilash orqali ularning qoniqish darajasini oshirishga olib keladi. Chunki, qoniqqan mijozlar sodiq bo'lishlari va takroriy xaridlarni amalga oshirishlari yehtimoli yuqoriroq bo'lib, u uzoq muddatli biznes muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganish korxonalarga o'z bozorini samarali ravishda segmentatsiyalash va maxsus marketing kampaniyalari bilan muayyan guruhlariga yo'naltirish imkonini beradi. Iste'molchilar xulq-atvori tadqiqotlari korxonalarga mijozlar ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun marketing aralashmasini (mahsulot, narx, joy, reklama) optimallashtirishga yordam beradi.

O'zbekistonlik tadbirkorlar mahalliy iste'molchilarning xulq-atvorini chuqur tahlil qilishlari kelgusida mahalliy bozorlarda raqobatbardosh bo'lishda katta yordam beradi. Lekin, rivojlangan davlatlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning faoliyatini o'rganish asosida fikrimizcha, yurtimiz tadbirkorlari ham xalqaro bozorlarga kengroq kirib borishlari lozim bo'ladi. Shu jihatdan, xorij tajribasini o'rganish asosida xorijiy iste'molchilarning xulq-atvorini o'rganish bo'yicha tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Iste'molchilar xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar:

mahsulot yoki xizmatlardan foydalanganlaridan keyingi taasurotlari haqida bilish uchun iste'molchilardan sharh va izohlar yozishlarini so'rash;

xaridorlarning mahsulot yoki xizmatlar haqida fikr-mulohazalarini tezkor va davomli o'rganib borish;

Likert shkalasi bo'yicha 10-12 ta savollardan iborat bo'lgan so'rovnoman tuzish va uni o'tkazish;

so'rovnomada demografik (yoshi, jinsi, kasbi, daromadi, millati, yetnik kelib chiqishi, yashash joyi, bola soni, oilaviy sharoiti va boshqalar) ma'lumotlari bo'yicha savollarni kiritish;

mahsulotlarning dizayni, ishlashi, chidamliligi, sifati kabi turli xil xususiyatlari haqida o'z fikrlarini baham ko'rishlarini so'rash;

Web-sayt orqali onlayn so'rovlarni o'tkazish tez va oson usul hisoblanadi;

batafsil va aniqroq fikrlarni olish uchun fokus-guruh so'rovlarini o'tkazish.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar yordamida tadbirkorlar xorijiy iste'molchilarning xatti-harakatlaridagi tendentsiyalarni tahlil qilish orqali korxonalar bozordagi o'zgarishlarni oldindan bilishlari va o'z strategiyalarini faol ravishda o'zgartirishlari mumkin bo'ladi. Rivojlanayotgan tendentsiyalarni tushunish tadbirkorlarga iste'molchilarning xohishlariga mos keladigan mahsulotlarni yangilash va rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadli auditoriyaga mos keladigan til, ohang va kontentni tanlashga yordam beradi va marketing kommunikatsiyalarini yanada samarali amlag oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqotlar



demografiya, psixografiya, xatti-harakatlar va ehtiyojlar asosida turli iste'molchilar segmentlarini aniqlashga yordam beradi.

Iste'molchilar qayerda va qanday ma'lumot olishni afzal ko'rishlari haqidagi tushunchalar, yeng samarali marketing kanallarini tanlashda katta ahamiyatga ega. Iste'molchilarning xulq-atvori haqidagi tushunchalar mahsulotni ishlab chiqishdan bozorga chiqish strategiyasigacha bo'lgan strategik biznes qarorlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Iste'molchilarning xatti-harakatlarini tushunish yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va marketing kampaniyalari bilan bog'liq bo'lgan xavfni mijozlar kutishlari bilan yaqindan moslashtirish orqali kamaytiradi.

Iste'molchilarning qarorlariga nima ta'sir qilishini bilish orqali korxonalar o'z resurslarini yanada samaraliroq taqsimlashi mumkin, bu yesa yuqori ta'sir ko'rsatadigan sohalarga ye'tibor qaratish mumkin bo'ladi. Iste'molchilarning xatti-harakatlarini o'rganish orqali korxonalar o'z takliflarini shaxsiylashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yanchuk, T., & Gorelova, D. (2024). Modern approaches to assessing the effectiveness of marketing at small businesses. *Business Navigator*, (1(74)). <https://doi.org/10.32782/business-navigator.74-6>.
2. Duman, S. (2021). Experimental design in marketing research. In *Handbook of Research Methods for Marketing Management*. Edward Elgar Publishing. <https://doi.org/10.4337/9781788976954.00012>
3. Bhattacharyya J. (2023). The structure of sustainability marketing research: a bibliometric review and directions for future research. *Asia-Pacific Journal of Business Administration*, 15(2), 245–286. <https://doi.org/10.1108/APJBA-06-2021-0239>
4. Svend Hollensen, Philip Kotler, and Marc O. Opresnik (2023) *Social Media Marketing: A Practitioner Approach*. 5th edition, *Transnational Business and Management* 2 (1): 67-68. DOI:10.33182/tbm.v2i1.3322
5. Xharavina, N., Kapoulas, A., & Miaoulis, G. (2020). Netnography as a marketing research tool in the fashion industry in Southeast Europe. *International Journal of Market Research*, 62(4), 499–515. <https://doi.org>
6. Blagorazumnaia, O., & Trifonova, L. (2024). Comparative analysis of marketing research methods and their impact on product and service development. *Journal of Research on Trade, Management and Economic Development*, 10(2(23)), 18–29. <https://doi.org>
7. Esteban-Bravo, M., & Vidal-Sanz, J. M. (2021). *Marketing Research Methods*. Marketing Research Methods. Cambridge University Press. <https://doi.org>
8. Talafuse, A. (2021). Marketing research: Innovation, experiential learning, and student engagement. *Journal of Education for Business*, 96(8), 552–556. <https://doi.org>
9. De Villiers, R., Tipgomut, P., & Hess, A. C. (2022). The adoption journey of QCA as research method: A meta-analysis of a decade in marketing academic literature. *Journal of Global Scholars of Marketing Science: Bridging Asia and the World*, 32(2), 198–221. <https://doi.org>
10. Silintowe, Y. B. R., & Made Sukresna, I. (2023). Green Innovation in Marketing Research: A Systematic Literature Review and Bibliometric Analysis (pp. 4–22). <https://doi.org>
11. Tzempelikos, N. (2022). Some Reflections on the State of Business-to-Business Marketing Research. *Journal of Business-to-Business Marketing*, 29(2), 119–130. <https://doi.org>
12. Stocchi, L., Pourazad, N., Michaelidou, N., Tanusondjaja, A., & Harrigan, P. (2022, March 1). Marketing research on Mobile apps: past, present and future. *Journal of the Academy of Marketing Science*. Springer. <https://doi.org/10.1007/s11747-021-00815-w>
13. Rambocas, M., & Pacheco, B. G. (2018, May 25). Online sentiment analysis in marketing research: a review. *Journal of Research in Interactive Marketing*. Emerald Group Holdings Ltd. <https://doi.org/10.1108/JRIM-05-2017-0030>
14. Moro, S., Pires, G., Rita, P., Cortez, P. and Ramos, R.F. (2023), «Discovering ethnic minority business research directions using text mining and topic modelling», *Journal of Research in Marketing and Entrepreneurship*, Vol. 25 No. 1, pp. 83. <https://doi.org>
15. Nunkoo, R., Teeroovengadum, V., & Ringle, C. M. (2021). Introduction: advances in marketing research methods. In *Handbook of Research Methods for Marketing Management*. Edward Elgar Publishing. <https://doi.org>
16. Kreutzer, R. T. (2023). Marketing Planning and Marketing Research. In *Practice-Oriented Marketing* (pp. 67–143). Springer Fachmedien Wiesbaden. <https://doi.org>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.